

Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-dekabr)










2018 yilning yanvar-dekabr oyida Respublikada 55,0 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,0 mingtaga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 38,0 mingtaga (13,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 323,5 mingtaga tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


| Tarmoqlar nomi | Ro'yxatdan o'tgan | Faoliyat ko'rsatayotga | Yangi tashkil etilgan |
|--|-------------------|------------------------|-----------------------|
|  Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 26042 | 24480 | 5628 |
|  Sanoat | 59300 | 56850 | 11279 |
|  Qurilish | 30478 | 29112 | 6370 |
|  Savdo | 75094 | 70902 | 11719 |
|  Tashish va saqlash | 13856 | 13330 | 2115 |
|  Yashash va ovqatlanish bo'vicha xizmatlar | 21062 | 19812 | 3900 |
|  Axborot va aloqa | 7379 | 6975 | 1236 |
|  Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 6937 | 6778 | 1178 |
|  Boshqa turlari | 98886 | 95278 | 11586 |



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar


2019 yilning 1 yanvar holatiga 339,0 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 22,1 % savdo, 17,5 % sanoat, 9 % qurilish, 7,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saqlash, 2,2 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 29,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Toshkent shahri (71318 ta), Toshkent (35385 ta), Samarqand (26297 ta) va Farg'ona (29529 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (11109 ta), Navoiy (11281 ta) hamda Xorazm (15765 ta) viloyatlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, ming birlikda





+ Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **323 517** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 38,0 mingta (13,3 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 21,9 % savdo, 17,6 % sanoat, 9,0 % qurilish, 7,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saqlash, 2,2 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Toshkent shahri (69236 ta), Toshkent (31030 ta), Farg'ona (29128 ta), Andijon (27391 ta) va Samarqand (25066 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Sirdaryo (10367 ta), Navoiy (11175 ta) hamda Jizzax (14226 ta) viloyatlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

01.01.2017 y.

• 268,4 ming

01.01.2018 y.

• 285,5 ming

01.01.2019 y.


• 323,5 ming



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar

2018 yil yanvar-dekabr oylarida 55 011 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017 yilning shu davriga nisbatan 34,1 % ga ko'pdir. Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Toshkent shahri (12714 ta), Toshkent (5456 ta), Samarqand (4831 ta) va Farg'ona (4338 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (1507 ta), Navoiy (2027 ta) hamda Xorazm (2299 ta) viloyatlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (11719 ta), sanoat (11279 ta), qurilish (6370 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (5628 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1178 ta), axborot va aloqa (1236 ta) hamda tashish va saqlash (2115 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

| | 01.01.2017 y. | | 01.01.2018 y. | | 01.01.2019 y. | |
|--|---------------|------------|---------------|------------|---------------|------------|
| | umumiy soni | ulushi, % | umumiy soni | ulushi, % | umumiy soni | ulushi, % |
| Respublika bo'yicha jami | 32747 | 100 | 41013 | 100 | 55011 | 100 |
| Savdo | 8549 | 26,1 | 7897 | 19,2 | 11719 | 21,3 |
| Sanoat | 6616 | 20,2 | 10225 | 24,9 | 11279 | 20,5 |
| Qishloq , o'rmon va baliq xo'jaligi | 3357 | 10,2 | 5294 | 12,9 | 5628 | 10,2 |
| Qurilish | 3044 | 9,3 | 3800 | 9,3 | 6370 | 11,6 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 2840 | 8,7 | 3359 | 8,2 | 3900 | 7,1 |
| Tashish va saqlash | 1666 | 5,1 | 1833 | 4,5 | 2115 | 3,8 |
| Axborot va aloqa | 945 | 2,9 | 1014 | 2,5 | 1236 | 2,3 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 544 | 1,7 | 877 | 2,1 | 1178 | 2,1 |
| Boshqa turlari | 5186 | 15,8 | 6714 | 16,4 | 11586 | 21,1 |

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni, ming birlikda






TIJORAT KORXONALARI

2019 yil 1 yanvar holatiga 265,0 mingta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 72,4 mingta, oilaviy korxonalar – 15,5 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 170,2 mingta va boshqalar 6,9 mingtani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 7560 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 2043 taga yoki 37,0 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 4006 tasi qo'shma, 3554 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Toshkent shaharda 4728 ta (jamidagi ulushi 62,5 %), Toshkent viloyatida 851 ta (11,3 %) va Samarqand viloyatida 396 tani (5,2 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xorazm viloyatida 71 ta (0,9 %), Qashqadaryoda 85 ta (1,1 %), Navoiy viloyatida 109 ta (1,4 %) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi 121 tani (1,6 %) tashkil etgan.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 2995 tani (39,6 %), savdoda 1668 tani (22,0 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 1225 tani (16,2 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 97 tani (1,3 %), axborot va aloqada 209 tani (2,8 %), tashish va saqlashda 214 tani

(2,8 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 339 tani (4,5 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 325 tani (4,3 %) va qurilishda 488 tani (6,5 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 2385 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1522 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 428 ta, Turkiya Respublikasi – 364 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 351 ta, Qozog'iston Respublikasi – 246 ta, va Koreya Respublikasi – 161 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimida ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 728 tasi sanoat, 654 tasi savdo, 229 tasi qurilish, 190 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 297 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish dinamikasi, birlikda

| | 2017 yil yanvar-dekabr | | 2018 yil yanvar-dekabr | |
|---|------------------------|---------------------------|------------------------|---------------------------|
| | Jami | umumiy soniga nisbatan, % | Jami | umumiy soniga nisbatan, % |
| Sanoat | 414 | 48,0 | 728 | 30,5 |
| Savdo | 136 | 15,8 | 654 | 27,4 |
| Qurilish | 68 | 7,9 | 229 | 9,6 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 51 | 5,9 | 190 | 8,0 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 23 | 2,6 | 112 | 4,7 |
| Axborot va aloqa | 24 | 2,8 | 93 | 3,9 |
| Tashish va saqlash | 20 | 2,3 | 54 | 2,3 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 13 | 1,5 | 28 | 1,2 |
| Boshqa turlari | 114 | 13,2 | 297 | 12,4 |



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.


2019 yil 1 yanvar holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 262,9 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 14,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 60,0 mingtasi (22,8 %) Toshkent shahri, 25,4 mingtasi (9,6 %) Toshkent, 23,3 mingtasi (8,9 %) Farg'ona hamda 22,6 mingtasi (8,6 %) Andijon viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 262,9 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 70,5 mingtasi (26,8 %) – savdo, 56,2 mingtasi (21,4 %) - sanoat, 29,0 mingtasi (11,0 %) - qurilish, 24,0 mingtasi (9,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 19,7 mingtasi (7,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 13,1 mingtasi (5,0 %) - tashish va saqlash, 6,7 mingtasi (2,6 %) - axborot va aloqa sohasi, 5,4 mingtasi (2,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 38,4 mingtasi (14,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 48,9 mingdan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 28,2 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahri (12071 ta), Toshkent (5080 ta), Samarqand (4312 ta) va Farg'ona (3780 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Sirdaryo (1354 ta), Xorazm (2009 ta) hamda Navoiy (1810 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda





Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda 11713 ta, sanoatda 11262 ta, qurilishda 6360 ta va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 5586 ta tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda 1154 ta, axborot va aloqada 1228 ta hamda tashish va saqlashda 2107 ta tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni




2019 yilning 1 yanvar holatiga yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 16154 tani tashkil etib, ulardan 15507 tasi yoki 96,0 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlar hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 32,7 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 37,5 % yoki 5800 tasi sanoat, 21,9 % yoki 3387 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,2 % yoki 2510 tasi savdo, 11,2 % yoki 1740 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,2 % yoki 192 tasi qurilish, 1,1 % yoki 177 tasi tashish va saqlash, 1,1 % yoki 174 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % yoki 160 tasi axborot va aloqa hamda 8,8 % yoki 1367 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Tugatilgan korxonalar va tashkilotlar

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 16673 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan -9802 taga kamaygan.

Albatta xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda. Misol tariqasida 2016 yilda 27220 ta, 2017 yilda 26475 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, 2018 yilning yanvar-dekabrda ushbu ko'rsatkich 16673 tani tashkil etgan.

Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning dinamikasi, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Agarda tugatilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qaraydigan bo'lsak, 28,0 % yoki 4662 tasi savdo, 18,0 % yoki 3006 tasi sanoat, 10,0 % yoki 1666 tasi qurilish, 9,8 % yoki 1627 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,1 % yoki 1184 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,5 % yoki 752 tasi tashish va saqlash, 2,6 % yoki 429 tasi axborot va aloqa, 1,2 % yoki 197 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 18,8 % yoki 3150 tasi boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

| | 01.01.2018 yil | | 01.01.2019 yil | | |
|--|-----------------|-----------------------|-----------------|-----------------------|--------------|
| | Soni (birlikda) | jamiga nisbatan, % da | Soni (birlikda) | Jamiga nisbatan, % da | Farqi, (+,-) |
| Jami | 26475 | 100 | 16673 | 100 | -9802 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | |
| qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 2218 | 8,4 | 1627 | 9,8 | -591 |
| sanoat | 3915 | 14,8 | 3006 | 18,0 | -909 |
| qurilish | 2370 | 9,0 | 1666 | 10,0 | -704 |
| savdo | 7283 | 27,5 | 4662 | 28,0 | -2621 |
| tashish va saqlash | 959 | 3,6 | 752 | 4,5 | -207 |
| yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1678 | 6,3 | 1184 | 7,1 | -494 |
| axborot va aloqa | 681 | 2,6 | 429 | 2,6 | -252 |
| sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 3222 | 12,2 | 197 | 1,2 | -3025 |
| boshqa turlari | 4149 | 15,7 | 3150 | 18,8 | -999 |

Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida **15 601** ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Ularning asosiy qismi 4624 tasi (29,6%) savdo, 2996 tasi (19,2 %) sanoat, 1663 tasi (10,7 %) qurilish, 1603 tasi (10,3 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1173 tasi (7,5 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 748 tasi (4,8 %) tashish va saqlash, 422 tasi (2,7 %) axborot va aloqa, 134 tasi (0,9 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 2238 tasi (14,3 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Andijon viloyatida -3150 ta, Qashqadaryoda -1060 ta, Toshkentda -863 ta hamda Samarqand viloyatida -503 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

**Statistik registrlarni yuritish va tizimli
xizmat ko'rsatish boshqarmasi
Tel.:71-230-80-90 (91)**